CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AZAMXONOV BAXODIR SAYITKAMOLXONOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA’LIMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASHNING DASTURIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH (“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani misolida)

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Chirchiq- 2026

UDK: 378.147:376:004.41

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

on pedagogical sciences

Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich
Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta’minotini takomillashtirish (“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani misolida)”.....**3**

Азамхонов Баходир Сайиткамолхонович
Совершенствование программного обеспечения подготовки будущих педагогов к организации деятельности субъектов инклюзивного образования (на примере дисциплины «Инклюзивное образование. Госпитальная педагогика»)……...…**23**

Azamkhonov Bakhodir Sayitkamolkhonovich
Improving the software support for preparing future teachers to organize the activities of inclusive education stakeholders (on the example of “Inclusive Education. Hospital Pedagogy”)…….. …….. **47**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....……...……..….....**51**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AZAMXONOV BAXODIR SAYITKAMOLXONOVICH

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INKLYUZIV TA’LIMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASHNING DASTURIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH (“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani misolida)

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped13128 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Umarov Shuxratjon Azizjonovich** fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Usarov Jabbor Eshbekovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Lutfillaev Ulug'bek Mahmudovich pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli ilmiy Kengashning 2026 yil "20" 11 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (556 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "06" 11 kuni tarqatildi.
(2026- yil "06" 11 dagi 42 raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun sifatli ta’limni tashkil etishning samarali mexanizmlari, korreksion-pedagogik, innovatsion-metodik strategiyalari amaliyotga keng tadbiq etilgan. Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlariga ko‘ra hamda hech bir kamsitishlarsiz tashkil etiluvchi inklyuziv ta’limda subektlarning faoliyatini o‘zaro manfaatli muhitda tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda. Ta’lim oluvchilarning inklyuziv ta’limga moslashuv intervalini qisqartirish va ularda o‘zlashtirish sifatini oshirishda pedagoglarning tibbiy-pedagogik diagnostikaga oid bilimlarini tizimlashtirish, korreksion ta’sir kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. YUNESKO tomonidan o‘qituvchilar uchun «Inklyuziv muhitni boshqarish» bo‘yicha maxsus raqamli va metodik qo‘llanmalar bazasi yaratilgan[1]. Ushbu dastur o‘qituvchilarni maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bunda bo‘lajak pedagoglarni oliy ta’lim davridan inklyuziv ta’limga axborotli kontentlar modifikatsiyalari vositasida tayyorlash va bu jarayonda ta’lim mazmunini adaptivlashtirish taqozo etilmoqda.

Dunyo ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqot markazlarida inklyuziv ta’lim jarayoni uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-metodik tayyorgarligini modulli o‘qitish tizimida integrativ dasturiy vositalar yordamida optimallashtirish hamda ta’lim oluvchilarning kasbiy motivatsiyasi, adaptiv diagnostik, kommunikativ ko‘nikmalarini intensiv rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Inklyuziv ta’lim jarayonida pedagogik-psixologik tashxislash, maxsus modullarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar va integrativ dasturiy vositalardan kompleks foydalanish, moslashuvchan o‘quv vositalarini individual qo‘llash hamda korreksion-rivojlantiruvchi talablarga rioya etish metodologiyasi asosida kadrlarni maqsadli tayyorlash va qayta tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda zamonaviy inklyuziv o‘qitish muhitining samaradorligini ta’minlashda inklyuziv ta’lim, gospital pedagogika tamoyillari hamda yondashuvlarining manzilli joriylanishi muhimdir. Bunda talabalarning tibbiy-pedagogik, raqamli va tashkiliy-ergonomik kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishning differensial, individual algoritmi, topshiriqlar tizimi va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirish, ushbu sohaga moslashuvchan innovatsion va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish hamda fanlararo integratsiyani ta’minlashning mustahkam me’yoriy-huquqiy bazasi shakllantirilgan. “Imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning hayot sifatini yuksaltirish hamda ta’lim mazmunini individuallashtirish” vazifalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.[2] Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa, eng avvalo,

[1] UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all. – Paris: UNESCO, 2020. – 506 p.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori. 46-son, 25.01.2024. – URL: https://lex.uz/docs/-6777147.

inklyuziv va gospital pedagogika bo‘yicha tayanch kompetensiyalarga ega zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislar hamda kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’limda fan o‘qituvchilari va maxsus pedagoglar hamkorligida barqaror rivojlanish muhitini modellashtirishga o‘rgatuvchi dasturiy ta’minotni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12- oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ta’lim jarayoniga raqamli ta’lim vositalarini tadbiq etishning tashkiliy-pedagogi, metodik aspektlari O.S.Abdullayeva, A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Begimqulov, N.I.Taylaqov, A.Xalikov, F.Zakirova, A.T.Ubbiyev, R.A.Xoldorboyeva, N.M.Mirzaxmedova va boshqalarning, raqamlashgan ta’lim muhitida dasturiy vositalarning ahamiyati va ulardan foydalanishning tarbiyaviy jihatlari E.A.Mo‘minov, M.Fayzulayeva va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Maxsus ta’lim sohasida kadrlar tayyorlashning tashkiliy pedagogik aspektlari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning korreksion-didaktik texnologiyalarini ishlab chiqish N.Abidova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, N.Muminova, Sh.Taxtayarova, R.Shomaxmudova, U.Fayziyeva, F.Qodirova va D.Yakubjanovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida raqamli ta’lim platformalari asosida dars jarayonini tashkil qilishning pedagogik jihatlarini o‘rganishga doir tadqiqot ishlari A.Volodin, I.Maksimey, V.Boev, I.Kudinov, E.Mogilevskaya, Xutorskiy, V.Krayevskiy, I.Balandina, A.Levkinlar kabilarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Xorijiy davlatlarda pedagogik ta’limni amalga oshirish, o’quv jarayonini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik ta’minotini bilan bog‘liq tadqiqot ishlari Pantich, Florian, L. Florian va J. Spratt,

L.S. Vigotskiy, P.Black, D.Wiliam, Meyer, Moss, Di Padova, G.Caggiano, Ainscow M, Symeonidou, Vuorikari kabilar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion metodlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta'minotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv va gospital ta'lim muhitida subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning kategorial tushunchalarini aniqlashtirish;

"Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" modulini raqamli ta'lim vositalari asosida o'qitishning adaptiv-funksional modelini takomillashtirish;

talabalarni sinergometodik faoliyatga tayyorlash bo'yicha integrativ dasturiy ta'minotning algoritmik tuzilmasini loyihalash va raqamli interaktiv vositalarni ishlab chiqish;

takomillashtirilgan dasturiy ta'minot asosida talabalarning sinergometodik faoliyatga tayyorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali verifikatsiyalash va integrativ diagnostik mezonlar asosida dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta'minotini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Qo'qon davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Nukus Davlat pedagogika instututlarining 265 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta'minotini takomillashtirishнинг mazmuni, shakl, metod, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida tanlab olingan mavzu yuzasidan ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o'quv-uslubiy manbalarни ўрганиш, kuzatuv, anketa, suhbat, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni inklyuziv muhitda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik-deontologik, assistiv-texnologik kabi kategorial tushunchalari shaxsiylashtirilgan, tarmoqli va ekotizimli raqamli ta'lim yondashuvlarini inklyuziv, gospital ta'lim muhitida sinergetik tamoyillar ustivorligida qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

"Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika" modulini o'qitishning adaptiv-funksional modeli talabalar kasbiy rivojlanishini sinergetik va metodik faoliyat integratsiyasiga yo'naltirishning ko'p bosqichli raqamli algoritmini akademik-ijtimoiy trayektoriya mezonlariga ko'ra mustaqil ta'lim topshiriqlari differensiatsiyasida kombinatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarni sinergometodik faoliyatga tayyorlash bo'yicha integrativ dasturiy

ta’minotning algoritmik o‘quv kontentlarini invariant va variativlikka ko‘ra loyihalash hamda www.InkEdu.uz platformasini dinamik differensiatsiya interfeysiga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarni sinergometodik faoliyatga kasbiy-deontologik, adaptiv-didaktik mezonlarda tayyorlashga integrativ dasturiy ta’minotni prognostik simulyatsiyalarda qo‘llash asosida erishilishi dinamik qaydlar sintezida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inklyuziv ta’lim sharoitida subektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashda talabalarning axborot kompetensiyasi hamda raqamli resurslardan adaptiv foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ish tizimini o‘zida mujassamlashtirgan “Talabalarni kompyuter savodxonligi bo‘yicha axborot kompetentligini rivojlantiruvchi web o‘quv-dasturiy tizim” (№ DGU 29238, 6.11.2023 yil) nomli dasturiy ta’minot ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan;

talabalarni sinergometodik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha integrativ dasturiy ta’minotning algoritmik tuzilmasi o‘quv kontentlarini invariant va variativlikka ko‘ra loyihalash va dinamik differensiatsiya interfeysiga integratsiyalashtirilgan www.InkEdu.uz platformasi elementlari asosida “Texnik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo’llanilishi” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

bo’lajak o’qituvchilarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlash jarayoni uchun adaptiv kontentlar va interaktiv funksiyalar hamda raqamli va pedagogik texnologiyalarni integrativ qo‘llash modeli asosida www.InkEdu.uz nomli platforma ishlab chiqilgan;

PHP dasturlash tili, Yii2 Framework dasturiy vositalari va MySQL bazasidan foydalanish orqali talabalarning “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani bo’yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini formativ baholashga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, OAK ro‘yxatiga kiritilgan va xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, shuningdek, e’lon qilingan ilmiy maqolalar va tezislarda yoritilganligi bilan tasdiqlanadi. Ushbu materiallar tadqiqot mazmunini ochib berish uchun yetarli hajmda bo‘lib, ularda qo‘llanilgan zamonaviy yondashuvlar, usullar va texnologiyalar ilmiy-amaliy hamda tashkiliy jihatdan asoslangan. Natijalarga oid umumlashgan ma’lumotlar rasmiy manbalarga tayanilgan, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari va ularning samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida aniqlangan. Shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak pedagoglarni inklyuziv ta’lim sharoitida subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik va dasturiy-metodik asoslari tahlil qilinib umumlashtirilganligi, “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani doirasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy yondashuvlari ishlab chiqilganligi, inklyuziv ta’lim subyektlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirishda adaptiv raqamli platformalar, interaktiv metodlar va raqamli pedagogik vositalardan

foydalanish tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda metodik imkoniyatlari aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fani misolida bo‘lajak pedagogning inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron o‘quv-metodik ta’minot, adaptiv dasturiy platforma, interaktiv topshiriqlar va elektron pedagogik muhit ishlab chiqilganligi, ishlab chiqilgan metodika asosida inklyuziv ta’lim subyektlari faoliyatini tashkil etish, hamkorlikni boshqarish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli vositalardan foydalanish metodikasi takomillashtirilganligi hamda ushbu natijalarni oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish tizimida qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta’minotini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni inklyuziv muhitda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik-deontologik, assistiv-texnologik kabi kategorial tushunchalari shaxsiylashtirilgan, tarmoqli va ekotizimli kabi raqamli ta’limning yondashuvlari inklyuziv, gospital ta’lim muhitida sinergetik tamoyillar ustivorligida qo‘llashga oid tavsiyalari “Texnik tizimlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo’llanilishi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 4 martdagi 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 332536-sonli guvohnoma). Natijada, talabalarni inklyuziv muhitda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” modulini o‘qitishning adaptiv-funksional modeli talabalar kasbiy rivojlanishini sinergetik va metodik faoliyat integratsiyasiga yo‘naltirishning ko‘p bosqichli raqamli algoritmini akademik-ijtimoiy traektoriya mezonlariga ko‘ra mustaqil ta’lim topshiriqlari differensiatsiyasida kombinatsiyalashga oid takliflardan 2023-2026 yillarda Farg‘ona davlat universitetida amalga oshirilgan “Ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bor va ko‘zi ojiz o‘quvchilarga mental arifmetika yordamida arifmetik amallarni o‘rgatish” mavzusidagi innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan (Farg’ona davlat universitetining 2026-yil 25-sentabrdagi 04/12018-son ma’lumotnomasi). Natijada, inklyuziv ta’limda talabalarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanini o‘qitishning maxsus tamoyillari ommalashtirilgan.

talabalarni sinergometodik faoliyatga kasbiy-deontologik, adaptiv-didaktik mezonlarda tayyorlashga integrativ dasturiy ta’minotni prognostik simulyatsiyalarda qo‘llashga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan Qo‘qon davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti va Nukus davlat pedagogika institutlarining o‘quv jarayoniga joriy etilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiining 2026-yil 15-iyundagi 02/01-01-549-son ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’lim muassasalarida “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanini dasturiy-didaktik ta’minotini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop yetish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop yetilgan, 2 ta dasturiy mahsulot uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 142 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan, tahlil jarayonida muammoning o‘rganilganlik darajasi ilmiy asoslab berilgan, tadqiqotning ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi va vazifalari, predmeti, ob’ekti va usullari, ilmiy yangiliklari, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining joriy qilinishi, natijalar aprobatsiyasi, natijalarining e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik-ijtimoiy zarurati va ilmiy-nazariy asoslari, inlyuziv ta’limda o‘qituvchilar tayyorlashning xorijiy tajibalari tahlili, gospital pedagogika sharoitida dasturiy-metodik ta’minotning mazmuni-texnologik, kommunikativ-kollaborativ va monitoring-diagnostik komponentlari hamda dasturiy-metodik ta’minotning integrativ, koordinatsion va adaptiv funksiyalarini oliy ta’lim jarayoniga joriy qilish qilish imkoniyatlarining ahamiyati tahlil qilingan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’limining o‘ziga xos xususiyatiga yangi texnologik o‘zgarishlar davrida halqaro standartlar va ta’lim jarayoni talablariga mos keluvchi maxsus kompetensiyalar hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lajak inklyuziv-mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish jarayoni kiradi. Shundan kelib chiqib oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishi talabalarini inklyuziv ta’limga o‘qitish jarayoni sifatini metodik va raqamli-texnologik tomondan takomillashtirish uchun zamonaviy raqamli ta’lim tendensiyalar, raqamli ta’lim texnologiyalari asosida tashkillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Prezident qarorlari va hukumat hujjatlari ushbu muammoning bevosita pedagogik-ijtimoiy zarurat ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-

tarbiya berish tizimini takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarorida inklyuziv ta’lim uchun to‘siqsiz muhit, maxsus pedagogik kadrlar, metodik qo‘llanmalar, ota-onalarni xabardor qilish, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim dasturlariga inklyuziv ta’lim metodikasini kiritish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur hujjatda pedagogik kadrlarning tayyorgarligi yetarli emasligi inklyuziv ta’lim samaradorligiga ta’sir qiluvchi muammo sifatida qayd etilgani tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Bob doirasida xalqaro tadqiqotlarda hospital school yoki school in hospital dasturlari bolalarning ta’lim olish huquqi bilan sog‘lig‘ini tiklash huquqi o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydigan mexanizm sifatida talqin qilinishi asoslangan. Bunday yondashuvda kasallik bolaning ta’lim biografiyasida uzilish hosil qilmasligi, aksincha, ta’lim jarayoni uning psixologik barqarorligi, subektlararo aloqalari va maktabga qayta moslashishiga yordam berishi muhim omil eknligi ta’kidlangan (Di Padova M., Pettoello-Mantovani M). Hospital ta’lim dasturi uzoq muddat davolanayotgan bolalarning maktabga qaytishdagi tipik qiyinchiliklarini kamaytirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi; bu fikr gospital pedagogikani kompensator emas, uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi strategiya sifatida ko‘rishga asos beradi (Caggiano G., Brunetti L.I.). Hospital pedagogika bo‘yicha tizimli sharhlarda o‘qituvchilar emotsional jihatdan nozik, metodik jihatdan murakkab va ko‘p subyektli muhitda ishlashi qayd etiladi (Avalos L., Fernandez M.B., Araneda S.). Bu holat bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga bir nechta talab qo‘yadi: birinchidan, u bolaning kasalligi haqida umumiy pedagogik ehtiyotkorlikka ega bo‘lishi; ikkinchidan, ta’lim dasturini qisqa, moslashuvchan va mazmunan muhim bloklarga ajrata olishi; uchinchidan, bolaning hissiy holatini inobatga olib, muloqot madaniyatini tanlay olishi; to‘rtinchidan, ota-ona va tibbiyot xodimlari bilan axborot almashuvini professional chegaralarda yurita olishi zarur. Demak, gospital pedagogikada o‘qituvchi tayyorgarligi faqat predmetni bilish bilan cheklanmaydi, balki interprofessional hamkorlik, etik sezgirlik, moslashtirilgan metodika va raqamli aloqa ko‘nikmalariga tayanadi.

Xorijiy adabiyotlarda o‘qituvchini inklyuziya subyekti sifatida tayyorlash ko‘pincha “inclusive teacher” yoki “teacher as agent of inclusion” tushunchalari orqali ochiladi. Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan shaxslar ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Yevropa agentligi tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv o‘qituvchi profili bo‘lajak o‘qituvchilar ta’limida o‘quvchilar xilma-xilligini qadrlash, barcha o‘quvchilarni alohida qo‘llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanishni davom ettirish kabi qadriyat va kompetensiyalarni muhim deb belgilaydi.[3] O‘qituvchini inklyuziya va ijtimoiy adolat agenti sifatida talqin qilib, uning kasbiy faoliyatini faqat sinf ichidagi metodika bilan emas, balki oila, hamkasb va jamiyat bilan hamkorlikda o‘zgarish yaratish qobiliyati bilan bog‘laydi (Pantich N., Florian L.).

Bu yondashuvlar tadqiqot mavzusi uchun muhim xulosani beradi: bo‘lajak o‘qituvchi inklyuziv ta’limda tayyor metodlarni ko‘chirib qo‘llovchi ijrochi emas,

[3] European Agency for Development in Special Needs Education. Profile of Inclusive Teachers. – Odense, Denmark: European Agency for Development in Special Needs Education, 2012. – 38 p.; European Agency for Special Needs and Inclusive Education. Profile for Inclusive Teacher Professional Learning. – Odense, 2022.

balki vaziyatga mos metodik qaror ishlab chiquvchi, subyektlar o‘rtasida pedagogik muloqotni yo‘lga qo‘yuvchi va ta’lim muhitini moslashtiruvchi faol kasbiy shaxsdir. Shuning uchun uning tayyorgarligi alohida mavzular bo‘yicha ma’lumot olishdan ko‘ra kengroq bo‘lib, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, kommunikativ mashqlar, raqamli kontent yaratish va monitoring natijalarini tahlil qilish bilan boyitilishi lozim.

Inklyuziv pedagogika nazariyasida (L.Florian va J.Spratt) taklif etgan yondashuv alohida ahamiyatga ega: unda o‘qituvchi ayrim o‘quvchilarni “muammoli guruh” sifatida ajratib qo‘ymasdan, butun sinf uchun moslashuvchan pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Bu fikr gospital pedagogika sharoitida ham o‘z kuchini saqlaydi. Uzoq muddat davolanayotgan o‘quvchi oddiy sinfdan vaqtincha uzoqlashgan bo‘lishi mumkin, ammo u o‘z sinfi, tengdoshlari, o‘quv dasturi va ta’lim natijalaridan uzilib qolmasligi kerak. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchi “алоҳида ўқувчи билан индивидуал машғулот” emas, balki bolaning real holatiga moslashtirilgan, umumiy ta’lim mazmuni bilan bog‘langan va tengdoshlar bilan aloqa saqlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan metodikani tanlashi zarur.

1-jadval

Kommunikativ-kollaborativ komponentda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish

Subyekt	**Asosiy vazifa**	**Aloqa shakli**	**Dasturiy-metodik ta’minot elementi**
Bola/o‘quvchi	O‘quv faoliyatida o‘z imkoniyati darajasida ishtirok etish, qiyinchilik va ehtiyojni bildirish.	Individual suhbat, audio/xabar, refleksiya belgisi, qisqa onlayn muloqot.	Refleksiya varaqasi, qulay format tanlash kartasi, motivatsiya kuzatuvi.
Ota-ona yoki qonuniy vakil	Uy/shifoxona sharoitida topshiriq bajarilishini qo‘llab-quvvatlash, pedagogga qayta aloqa berish.	Maslahat, telefon/messej, qisqa yo‘riqnoma, haftalik qayd.	Ota-ona uchun algoritm, kuzatuv varaqasi, savol-javob bloki.
O‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchi	Moslashtirilgan dars va topshiriqni loyihalash, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish.	Dars, onlayn platforma, individual uchrashuv, guruh loyihasi.	Dars shabloni, adaptiv topshiriq banki, hamkorlik xaritasi.
Maxsus pedagog/psixolog	Individual ehtiyoj, rivojlanish xususiyati va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiya berish.	Konsultatsiya, ekspert xulosasi, qo‘shma tahlil.	Diagnostika kartasi, tavsiya bloki, progress xaritasi.
Tibbiyot xodimi	O‘quv yuklamasi, vaqt va rejim bo‘yicha pedagogik jarayonga ta’sir etuvchi cheklovlarni aniqlashtirish.	Muvofiqlashtirilgan ma’lumot, ehtiyot choralari, rejim bo‘yicha tavsiya.	Yuklama moslashuvi jadvali, dars vaqti bo‘yicha cheklov qaydi.

Inklyuziv ta’lim subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni sinergetik faoliyat sifatida izohlash mumkin. Sinergetik yondashuvda natija alohida subyektlarning oddiy yig‘indisidan emas, ularning o‘zaro moslashuvi, axborot almashuvi va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan harakatidan hosil bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar

tayyorgarligi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limga ijobiy munosabat va o‘z kuchiga ishonch amaliy tajriba, metodik bilim va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti bilan bevosita bog‘liq. Symeonidou tomonidan olib borilgan adabiyotlar sharhi boshlang‘ich o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida inklyuziyani epizodik mavzu sifatida emas, butun pedagogik tayyorgarlikni kesib o‘tuvchi tamoyil sifatida kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’limda ham o‘qituvchi, ota-ona, bola, psixolog, maxsus pedagog va tibbiyot xodimi alohida-alohida to‘g‘ri ish qilishi, dasturiy-metodik ta’minot komponentlarini sinergetik faoliyatning integrativ, koordinatsion va adaptiv funksiyalari orqali aniqlashtirishga yo‘naltirilgani bilan muhimdir. Bunda inklyuziv ta’limni raqamlashtirish, adaptiv o‘quv kontentiga asoslangan dasturiy vositalardan foydalanish asosida ta’lim oluvchilarda modifikatsiyalangan didaktik ta’minotni kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.


Adaptiv kontentlarga asoslangan raqamli ta’lim platformalarining inklyuzim ta’lim jarayoni bilan o‘zaro integratsiyasi sinergetik ta’sirni yuzaga keltirib bo’lajak o‘qituvchilarning pedagogik, didaktik-metodik, raqamli va shaxsiy-ijtimoiy kompetensiyalarini umumiy tizim sifatida shakllantirish imkonini berishi asoslandi.

Kommunikativ-kollaborativ komponent dasturiy-metodik ta’minotning subyektlararo hamkorlikni ta’minlovchi qismi bo’lib, uning nazariy asosi inklyuziv ta’limda hamkorlik madaniyatini shakllantirish g‘oyasi bilan bog‘liq. Bolalarning fikrini eshitish, ularning o‘quv muhitiga munosabatini inobatga olish inklyuziv jarayonni takomillashtirishda muhim ekanini ko‘rsatadi (Ainscow M va Messiou K).

Dissertatsiyaning **“Inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashda raqamli va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli va pedagogik texnologiyalarni integrativ qo‘llash modelini rag‘batlantirish, talabalarning raqamli inklyuziv ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarining mazmuni va didaktik shart-sharoitlari hamda baholash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Tadqiqot davomida inklyuziv ta’limda bo’lajak o’qituvchilarni subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning raqamli InklyuzivLMS platformasini yaratish vazifasi asosida o‘quv jarayonini takomillashtirishning yaxlit, tizimli va o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model ta’lim jarayonining maqsadli, texnologik, mazmunli, o‘quv jarayoni, baholash va natija komponentlarini integratsiyalashgan holda ifodalaydi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi.


Dasturiy-metodik ta’minotning funksiyalari ham aynan shu murakkab subyektlararo tizimni izchil harakatga keltirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida interaktiv raqamli ta’lim platformasidan foydalanish gospital pedagogika jarayonlarini konstruktivistik ta’lim paradigmasi asosida interaktiv simulyatsiya muhitida namoyish etish, o‘quvchilarning individual o‘quv sur’atiga moslashtirilgan topshiriqlar orqali gospital pedagogika jarayonlari sintezini turli qiyinlik darajalarida o‘zlashtirish, formativ baholash elementlari yordamida talabalrning o‘zlashtirish darajasini aniqlash hamda dinamik adaptiv kontent asosida nazariy bilimlarni mustahkamlash kabi muhim metodik vazifalarni bajaradi.



1-rasm. Inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashda raqamli va pedagogik texnologiyalarni integrativ qo‘llash modeli

Modelda “platformaviy yadro” tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Chunki raqamli vosita alohida modul sifatida qolib ketsa, fan o‘qituvchisi uni faqat qo‘shimcha materiallar joylash maydoni sifatida ishlatadi. Platformaviy yadro esa kurs modullari, testlar, topshiriqlar, forum, jurnal, portfolio va analitik ko‘rsatkichlarni bitta pedagogik algoritmga keltiradi. Masalan, talaba gospital holatni o‘rganadi, nozologiya tavsifini tahlil qiladi, differensial topshiriq ishlab chiqadi, uni forumda muhokama qiladi, o‘qituvchi izohi asosida tuzatadi, test natijasi va portfoliodagi dalillar orqali o‘sish dinamikasini ko‘radi. Shu jarayonda raqamli vosita pedagogik harakatlar ketma-ketligini tartibga soluvchi muhitga aylanadi.

Raqamli va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi modelida asosiy metodik birlik “vaziyat - ehtiyoj - yechim - monitoring - korreksiya” zanjiridir. Talabaga avvalo gospital yoki inklyuziv ta’limga oid vaziyat beriladi. Keyin u bolaning yosh guruhi, ehtimoliy funksional imkoniyati, o‘quv faoliyatidagi to‘siq, muloqot ehtiyoji va oila/tibbiy muhit bilan bog‘liq sharoitlarni aniqlaydi. Shundan so‘ng differensial topshiriq, raqamli resurs, subyektlararo hamkorlik rejasi va baholash mezoni ishlab chiqiladi. Natijalar platforma analitikasi, o‘qituvchi izohi, tengdoshlar fikri va talabaning refleksiyasi orqali qayta ko‘riladi. Ana shu zanjir modelning takomillashtirilgan jihatini tashkil etadi.



2-rasm. Raqamli inklyuziv ta’lim kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasining didaktik sikli

InklyuzivLMS platformasining funksional imkoniyatlari taklif etilayotgan modelning raqamli yadrosi sifatida olinadi. Platforma ochiq sahifasida real vaqt analitikasi, adaptiv testlar, differensial topshiriqlar, baho jurnali, interaktiv forum, sertifikatlar, foydalanuvchi rollari, admin, o‘qituvchi va talaba panellari, shuningdek

gospital pedagogika bo‘limi mavjudligi ko‘rsatilgan. Bunday tuzilma modelning uch asosiy ehtiyojini qamrab oladi: birinchidan, kontent va topshiriqni moslashtirish; ikkinchidan, subyektlararo muloqot va hamkorlikni tashkil etish; uchinchidan, talabaning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish. Demak, platforma mazkur tadqiqotda “raqamli o‘quv makoni” emas, balki “integrativ raqamli-pedagogik tizimning operatsion yadrosi” sifatida tushuntiriladi.

Talabalarning raqamli inklyuziv ta’lim kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Har bir bosqichda maqsad, faoliyat shakli, platforma funksiyasi, pedagogik mahsulot va baholash dalili aniq belgilanadi. Bunday bosqichlilik talabaning o‘qish jarayonida nima uchun aynan shu resursdan foydalanayotganini, qaysi kompetensiyani rivojlantirayotganini va natija qanday aniqlanishini anglashiga yordam beradi.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanining o‘quv dasturida talabalarga inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, gospital pedagogika mazmuni, imkoniyati cheklangan va uzoq muddat davolanish jarayonida bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashga doir pedagogik-psixologik xususiyatlar, individual ehtiyojlarni aniqlash, moslashtirilgan ta’lim jarayonini loyihalash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish vazifalari yuklatilgan. Fan 5 ECTS kreditga ega bo‘lib, auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim va jami yuklama nisbatida tashkil etilgan; dasturda ma’ruza, seminar, keys-stadi, guruhlarda ishlash, individual va jamoaviy loyiha kabi metodlar ko‘rsatilgan. Bu holat mazkur fanni raqamli platforma bilan integratsiyalash uchun qulay didaktik maydon sifatida ko‘rsatadi. Chunki fan mazmuni nazariy ma’lumotni emas, balki real kasbiy vaziyatga yaqin faoliyatni talab qiladi.[4] Yuqoridagi ilmiy-metodik va strategik omillarni inobatga olgan holda, pedagogika yo’nalishi talabalari uchun “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” faniga ixtisoslashtirilgan interaktiv InklyuzivLMS platformasini ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.


Bunday platforma Gospital pedagogika o’quv jarayonlarini adaptiv kontentlar asosida tashkillashtirish, talabalarning individual o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish hamda formativ baholash elementlarini integratsiyalash imkonini beradi. Shulardan kelib chiqib **www.InkEdu.uz** raqamli ta’lim platformasi zamonaviy veb-texnologiyalar asosida ishlab chiqildi.

Platforma to‘liq veb-ilova shaklida ishlab chiqilgan bo‘lib, brauzer orqali ishlaydi. Shu sababli talaba va o‘qituvchilar qo‘shimcha dasturiy ta’minot yoki maxsus qurilma o‘rnatmasdan turib tizimdan foydalanishlari mumkin. Uning asosiy sahifasida bo‘lajak o‘qituvchilar uchun inklyuziv ta’limga yo‘naltirilgan kurs, gospital pedagogika bo‘yicha o‘quv modullari, progress indikatorlari va ro‘yxatdan o‘tish/kirish imkoniyatlari berilgan.

“Platformaviy yadro” tushunchasi kurs modullari, testlar, topshiriqlar, forum, jurnal, portfolio va analitik ko‘rsatkichlarni bitta pedagogik algoritmga keltirish masalan, talaba gospital holatni o‘rganadi, nozologiya tavsifini tahlil qiladi, differensial topshiriq ishlab chiqadi, uni forumda muhokama qiladi, o‘qituvchi izohi

[4] Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika: o‘quv dasturi. – Chirchiq: Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2025. – B. 2–8.

asosida tuzatadi, test natijasi va portfoliodagi dalillar orqali o‘sish dinamikasini ko‘radi. Shu jarayonda raqamli vosita pedagogik harakatlar ketma-ketligini tartibga soluvchi muhitga aylanadi.



3-rasm. InklyuzivLMS platformasining asosiy ishchi sahifasi

Imkoniyatlar blokida real vaqt analitikasi, adaptiv testlar, differensial topshiriqlar, baho jurnali va interaktiv forumning bir joyda berilishi taklif etilayotgan model uchun metodik ahamiyatga ega. Chunki bu modullar alohida ishlatilganda faqat texnik funksiyalardir; ular differensial ta’lim, sinergetik simulyatsiya va formativ rag‘batlantirish algoritmiga qo‘shilganda esa bo‘lajak o‘qituvchining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantiradigan yagona pedagogik muhit vazifasini bajaradi.

Admin, o‘qituvchi va talaba rollarining alohida panellar orqali ajratilishi modelning koordinatsion jihatini kuchaytiradi. Chunki subyektlar faoliyatini tashkil etishda har bir ishtirokchining vazifasi, vakolati, kirish darajasi va monitoring imkoniyati aniq bo‘lishi kerak. O‘qituvchi paneli kurs va modul yaratish, differensial topshiriq berish, baho va davomatni yuritish, individual ta’lim rejasi bilan ishlashga yo‘naltirilsa, talaba paneli darslarni bosqichma-bosqich o‘rganish, topshiriq yuborish, progress va sertifikatlarni ko‘rish hamda forum orqali muloqot qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, raqamli va pedagogik texnologiyalarni integrativ qo‘llash modeli bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashda nazariya, platforma, metodika va monitoringni birlashtiradi. InklyuzivLMS platformasi ushbu modelda raqamli yadro sifatida ishlaydi; differensial ta’lim talabaning nozo-pedagogik ehtiyojni ko‘ra olish ko‘nikmasini rivojlantiradi; sinergetik simulyatsiya subyektlararo hamkorlikni kasbiy vaziyatga yaqin sharoitda mashq qildiradi; formativ rag‘batlantirish esa talabaning o‘sish dinamikasini ko‘rsatib, keyingi pedagogik qarorni asoslaydi. Natijada model bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligini

raqamli kontentni o‘zlashtirish darajasidan inklyuziv strategiyalarni loyihalash va boshqarish darajasiga olib chiqadi. Ishlab chiqilgan metodik model pedagogika yo’nalishi talabalari uchun “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” fanini o‘qitishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan amaliy yechim sifatida taklif etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Adaptiv dasturiy ta’minot vositasida talabalarning inklyuziv ta’lim strategiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi”** deb nomlangan bo‘lib, unda oliy ta’limda pedagogik tajriba-sinovni o‘tkazishning maqsadi va vazifalari belgilanib, “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” faniga oid ma’ruza hamda seminar, mustaqil ish mashg‘ulotlarini raqamli muhit texnologiyasi asosida o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodikani joriy etish bilan bog‘liq tahlil va natijalar keltirilgan.

Tajriba guruhidagi talabalar faoliyati www.InkEdu.uz domenida joylashtirilgan InklyuzivLMS platformasi asosida tashkil etildi. Platforma kurs modullari, adaptiv testlar, differensial topshiriqlar, gospital holatlar, forum, baho jurnali, portfolio, dashboard va real vaqt analitikasi kabi vositalarni o‘zida birlashtiradi. Ushbu vositalar talabalarning mustaqil ta’limini oddiy nazorat qilinadigan topshiriqdan platforma dalillari bilan boshqariladigan kvazikasbiy faoliyatga aylantirish imkonini beradi.

Nazorat guruhida o‘quv jarayoni an’anaviy ma’ruza, seminar, topshiriq, mustaqil ta’lim va baholash shakllari orqali olib borildi. Tajriba guruhida esa ayni fan mazmuni InklyuzivLMS platformasi bilan integratsiyalashgan holda tashkil qilindi: talaba modulni o‘zlashtirdi, adaptiv testdan o‘tdi, gospital keysni tahlil qildi, differensial topshiriq bajardi, forumda muhokama qildi, yakuniy mahsulotni portfolioga joylashtirdi va dashboarddagi progress asosida o‘z rivojlanish dinamikasini kuzatdi. Shu jihatdan tajriba guruhi nazorat guruhidan faqat texnik vosita bilan emas, balki mustaqil va kvazikasbiy faoliyatni boshqarish metodikasi bilan farq qildi.

